



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 18 iyul

№ 1805

O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni qayta tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Obidov Lazizbek Ismoilovich – sudyalik vakolati muddati davriga Jizzax viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Arnasoy tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Olmaliq shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Mamurov Jamshid Shokirovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Sirdaryo viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Sardoba tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Namangan viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Djamolov Sherzod Shukrilloyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Xorazm viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Suvankulov Fazliddin Yuldashevich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Sirdaryo viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Sayxunobod tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Sirdaryo viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Mirzaobod tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Fayzullayev Jamshid Shavkatovich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Pastdarg‘om tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Jomboy tumanlararo sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Murodulloyeva Shoxida Nasirdinovna – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Jomboy tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Samarqand viloyat sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Tuxtayev Habibullo Barotovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Navoiy viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Konimex tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Navoiy viloyati jinoyat

ishlari bo'yicha Xatirchi tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Rayimov Maqsud Juraqulovich – sudyalik vakolati muddati davriga Navoiy viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Xatirchi tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Navoiy viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Konimex tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Baxriyev Mizrob Djamshitovich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyati Samarqand tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Jizzax viloyati Jizzax tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Raximov Umidjon Aliyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Surxondaryo viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Surxondaryo viloyati Denov tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

BJ31464102